



## O'ZBEKISTON MILLIY AVTOSANOATDA ISHLAB CHIQRILGAN YENGIL AVTOTRANSPORT VOSITALARINING MARKIROVKA BELGILARINI ANIQLASH USULLARI.

**Isoxanov O'tkir Ibodullayevich.**

*Toshkent Davlat Transport Universiteti*

*Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchi.*

**Turdibekov Salohiddin Qodirovich.**

*Toshkent Davlat Transport Universiteti*

*Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchi.*

**Utkirov Shokirxuja Shavkat o'g'li**

*Toshkent Davlat Transport Universiteti*

*Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchi.*

[shokirxuja8687@gmail.com](mailto:shokirxuja8687@gmail.com)

**Annotatsiya;** Ilmiy maqolaning assosiy maqsadi, chet davlatlar va vatanimizda ishlab chiqarilgan avtotransport vositalarining kuzov va dvigatellariga tushiriladigan korxonaga tamg'a belgilarini tadbiiq etish va tushirilganda hosil bo'ladigan izlarning konstruksiyasidagi elementlarini va ulardagi raqam va harflar nimani bildirishini *aniqlash kiradi.*

**Kalit so'zlar;** WMI, VDS, VIS, VIN, kod, Identifikatsiyalash, ISO, maxsus belgilar, taqqoslash tizimi, ekspert.

Avtotransport vositalarida korxonaga tamg'alarining birlamchi urilgandan keyin ularga har - xil usullar bilan o'zgartirishlar kiritilganda, birlamchi raqamlarini aniqlash usullari va ularni tadbiiq qilish tezkor qidiruv, tergov harakatlariga yordam berishda hamda ekspertlarning amaliyotda o'tkazilgan ekspertizalarini o'rganish natijasida, mavjud idoralarda ekspertning ishi mabaynida tug'ilayotgan muammolarni yengillashtirish va yechimini to'g'ri topish va yosh hodimlarni o'rgatish uchun qulayliklar yaratish maqsadida ushbu qo'llanma tuzildi.

Ushbu ilmiy maqola Toshkent Davlat Transport Universiteti Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası professor-o'qituvchilari va talabalarini ishlab chiqarish amaliyoti davomida foydalanishlari uchun hizmat qiladi.

### **Kuzovdagi (ramasidagi) Identifikatsion belgilarni taqqoslash tizimi.**

Ulxalqaro standart (ISO 3779-1983) bo'yicha har bir avtotransport vositalarining kuzovini ajralmas qismi (rama lonjeroni)ga identifikatsiya raqamlari -Vehicle Identification Number (VIN) urilishi lozim va o'n yetti belgidan iborat bulib, uch qismga bo'lingan va ular kuyidagilar:

- World Manufactures Identification (WMI) - birinchi uchta belgi - ishlab chiqaruvchining xalqaro idetifikatsion kodini bildiradi;



- Vehicle Description Section (VDS) - keyingi oltita belgi - avtomobilni ta'riflash qismi;

- Vehicle Identification Section (VIS) - oxirgi sakkizta belgi - farqlarini ko'rsatuvchi qismi bo'lib, ulardan to'rtasi raqamlar bilan yozilishi shart.

**1FAVP29D3GA534647**

VIN																
WMI			VDS						VIS							
1	F	A	D	P	2	9	D	3	G	A	5					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	3	4	5	6	7

1 - ishlab chiqaruvchining geografik joylashgan o'rni **(1)**;

2 - Davlatning shartli belgisi (kod) **(F)**;

3 - ishlab chiqaruvchining shartli belgisi (kod) **(A)**;

4 - 9 - mahsulotning indeksi (avtomobilning asosiy parametrlari va hususiyatlari) **(BR29D3)**;

10 - ishlab chiqarilgan namunaning yil kodi **(G)**;

11 - ishlab chiqaruvchi karxona belgisi **(A)**;

12 - 17 - ishlab chiqarilgan mahsulotning tartib raqamlari **(534647)**;

Ishlab chiqaruvchi korxonada bo'laklarga bo'lingan qismlar yig'ilib bir butun qilib, ishga yaroqli holga keltiriladi va ishlab chiqaruvchi korxonada VIN o'lchamlari, chuqurliklari bir xil bo'lishiga javob beradi. Ishlab chiqaruvchi tomonidan raqam va harflardan iborat VIN belgilari tushirilib, ularning oxirgi to'rtta belgilari sonlar bilan urilishi shart.

Belgilarni urishda, arab sonlari **(1,2,3,4,5,6,7,8,9,0)** va lotin harflari **(A,B,C,D,E,F,G,H,I,J,K,L,M,N,P,R,S,T,U,V,W,X,Y,Z)** dan foydalaniladi.

Identifikasion markalash belgilariga quyidagi harflar **(I,O va G)** dan foydalanilmaydi.

Kuzovga taqqoslash belgilari **VIN (WMI, VDS va VIS)** lar aloqida - aloqida tushirilmaydi. Ular bir qator qilib tushirilib, o'lchamlari va chuqurliklari bir xil bo'lishi kerak. **VIN** xujjatlariga bir qatorda yozilib ularning oralig'ida bo'lib turuvchi belgilar qo'yilmaydi.

Ko'p chet davlat avtomobillarida kuzovga tushiriladigan taqqoslash tamg'a belgilari o'zlarining o'rgangan usullarida tushiriladi. Ko'plari xalqaro standartdan farq qiladi va tavsiya etilgan. Evropa, Aziya va AQSh davlatlarida avtomobil kuzovlariga urilgan taqqoslash shartli belgilari xarf va sonlarda tushirish miqdorlari ko'p yoki kam bo'lishi mumkin va bir-birlaridan farq qilishlari quyidagi jadvalda keltirilgan.



**Evropa, Osiyo va AQSh davlatlarida ishlab chiqarilgan avtomobil kuzovlariga quyidagicha identifikasion belgilari aniqlanadi.**

**1 jadval**

Davlat markasi	Identifikasion belgilari
Audi (Germaniya)	WAU ZZ28GZ TA 123456
Mercedes-Benz serii W124 (Germaniya)	WDB 124030 1B 012345
Mercedes-Benz serii W140 (Germaniya)	WDB 140032 1A 012345
Mercedes-Benz serii G (Germaniya)	WDB 461338 17 012345
Mercedes-Benz serii W123 (Germaniya)	123 020 12 123456
Mercedes-Benz ML-sinfga mansub (SShA)	WDC AB72E8 WA012345 4JG AB72E8 WA012345
BMW (Germaniya)	WBA AN310! 0AA12345
Mitsubishi, eksport qilishga bajarilgan (Yaponiya)	JMB ONB240 WP012345
To'eta, eksport qilishga mo'ljallanmagan (Yaponiya)	JT1 23BND0 12345678 SB12-0123456
Mercedes-Benz serii W140, Trasco/Bremen (Germaniya) firmasi tamonidan kuzovi zirh bilan qoplangan (bronirovanie)	TR12345678
Acura (Yaponiya)	19UJ1152 BL012345
Jeep Grand Cherokee (SShA)	1J4 GZ78Y1 SC123456

Avtomobilning taqqoslash tamg'a belgisida o'ninchi belgi avtomobilning ishlab chiqarilgan yilini bildiradi. Ishlab chiqarilgan yil belgilari tushirilishi kalendar bo'yicha farq qiladi, sababi avtomobil sotishga chiqarishdan uch - to'rt oy oldin kelasi yilning belgisi qo'yilgan bo'lishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi, keyingi model yilining tushirilishi oylarida farq bo'ladi ammo ko'p karxonalar model yilini o'tgan yilning 1 oktyabridan qabul qiladi. Maslan: taqqoslash o'ninchi (**S**) 1995 yil belgisi qo'lgan bo'lsa, bu yil belgisi 1994 yil kuz oyidan boshlab ishlab chiqarishga qo'yilgan.

**Avtotransport vositalarining ishlab chiqarishda yillarining maxsus belgilar bilan belgilanishi.**

**2 jadval**



Yil	Kod	Yil	Kod	Yil	Kod
1980	A	1986	G	1992	N
1981	B	1987	N	1993	R
1982	S	1988	J	1994	R
1983	D	1989	K	1995	S
1984	E	1990	L	1996	T
1985	F	1991	M	1997	B
1998	W	2012	S	2026	T
1999	X	2013	D	2027	B
2000	Y	2014	E	2028	W
2001	1	2015	F	2029	X
2002	2	2016	G	2030	Y
2003	3	2017	N	2031	1
2004	4	2018	J	2032	2
2005	5	2019	K	2033	3
2006	6	2020	L	2034	4
2007	7	2021	M	2035	5
2008	8	2022	N	2036	6
2009	9	2023	R	2037	7
2010	A	2024	R	2038	8
2011	B	2025	S	2039	9

Yuqorida ko'rsatilgan yil kod standartlariga ishlab chiqaruvchi hamma firma va karxonalar rioya qilmaydi. Yillarga bog'liq bo'lmagan belgi va sonlar bilan belgilashlari mumkin.

Respublikamizda YPH va ekspertlar avtomobilning ishlab chiqarilgan yilini aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Masalan: Merctdes - Benz avtomobilining ideftikasion raqamlari **WDB 140032 1A 655432**, bunda avtomobil 1980 yilda ishlab chiqarilgan bo'lib, ishlab chiqarilgan yili kodi (**A**) 10 - emas balki 11-bo'lib joylashgan. Avtomobil kuzovida identifikasion raqamlarining 10nchi bo'lib joylashgan kodi (**1**) avtomobilning rul boshqarmasi ыngda yoki chapda joylashganligini bildiradi.

Merctdes - Benz avtomobilining ideftikasion raqamlarining 11- (A,V,S, D,E,7) kodlari yig'uvchi zavodning kodini va avtomobillar ishlab chiqarilgan sonlari aniqlanadi. (**W140**) seriyali avtomobillar 1991 yildan buen ishlab chiqara boshlagan.

Merctdes - Benz seriyali Gelandewagen (G turi) avtomobilining rama lonjeronidagi identifikasion raqamlarining o'ninchi va o'n birinchi belgilarida harflar o'rniga sonlar tushirilgan, Masalan: **WDB 461338 17 456789** bunday belgilarda **VDS** va **VIS** identifikasiya qilish belgilarini ыar bir ishlab chiqaruvchi karxonalar ixtiyoriy holda bozor talablarini inobatga olib va o'z udumlari bo'yicha identifikasion belgilarini urishlari mumkin.

**NEXIA avtomobillarida identifikasiyalash tizimidagi belgilar quyidagicha aniqlanadi.**



## 4 Jadval

<b>Identifikasiyalash belgilari</b>			
<b>X</b>	<b>W</b>	<b>B</b>	<b>3 L 3 1 Ə D 1 A 1 2 3 4 5 6</b>
(1)	(2)	(3)	(4) (5) (6) (7) (8) (9) (10) (11)(12)(13) (14) (15) (16) (17)
Tartib raqamlari	Ko d	Kodlarni aniqlash	Turlari
(1) - (3)	<b>UL</b> V	1996 yildan 2003 yilgacha ishlab chiqaruvchi karxona kodi	<b>Uzbekistan, AOZT «UzDəUavto»</b>
	<b>XW</b> B	2004 yildan ishlab chiqaruvchi karxona kodi	<b>Uzbekistan, ZAO "DjiƏm Uzbekistan"</b>
(4)	<b>3</b>	Turi	<b>Yo'lovchi tashuvchi,dvigateli ko'ndalang joylashgan, oldi privodli</b>
(5)	<b>L</b>	Dvigatel kodi	<b>L-SOHC D-DOHC 1498 kub/sm, 4 ¼ilindirli, ko'p teshikdan ¼eqilg'ini sachratuvchi.</b>
(6)	<b>3</b>	Kuzov turi	<b>4 ta ¼shikli sedan</b>
(7)	<b>1</b>	O'zgarishlarning boshlanishi	<b>Birinchi model (N 100) Ikkinchi model (N 150)</b>
(8)	<b>Ə</b>	Model turi	<b>V - ¼tilirovannyy U - Ne¼tilirovannyy (Evro 2) S - Ne¼tilirovannyy (Evro 3) E - Ne¼tilirovannyy (Evro 4)</b>
(9)	<b>V</b>	Transmissiya turi va rul boshqormasining joylashishi	<b>V - 4 basqichli mexanik; D- 5 basqichli mexanik; Chap tomondan boshqariladi.</b>
(10)	<b>1</b>	modelning ishlab chiqarilgan yillari	<b>1 - 2001, 2 - 2002, 3 - 2003, 4 - 2004, 5 - 2005, 6 - 2006, 7 - 2007, 8 - 2008, 9 - 2009.</b>
(11)	<b>A</b>	Yig'uvchi karxona kodi	<b>Asaka</b>
(12)- (17)	<b>12</b> <b>3456</b>	Avtomobil seriyalarining tartib raqami	-

Ilmiy maqolaning assosiy hulosa, chet davlatlar va vatanimizda ishlab chiqarilgan avtotransport vositalarining kuzov va dvigatellariga tushiriladigan korxonaga tamg'a belgilarini tadbiq etish va tushirilganda hosil bo'ladigan izlarning konstruksiyasidagi elementlarini va ulardagi raqam va harflar nimani bildirishini aniqlash kiradi.



Avtotransport vositalarida korxonada tamg'alarining birlamchi urilgandan keyin ularga har - xil usullar bilan o'zgartirishlar kiritilganda, birlamchi raqamlarini aniqlash usullari va ularni tadbiq qilish tezkor qidiruv, tergov harakatlariga yordam berishda hamda ekspertlarning amaliyotda o'tkazilgan ekspertizalarini o'rganish natijasida, mavjud idoralarda ekspertning ishi mabaynida tug'ilayotgan muammolarni yengillashtirish va yechimini to'g'ri topish va yosh hodimlarni o'rgatish uchun qulayliklar yaratish maqsadida ushbu maqola yozildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D Abdurazakova, S Utkirov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Science and innovation in the education system 2 (4), 8-10.
2. S Utkirov, E Abdusamatov, B Raxmanov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Евразийский журнал академических исследований 3 (2 Part 2) 57-65.
3. Э Абдусаматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ НАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88.
4. S Utkirov (2023). YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA YANGICHA MEKANIZMLARNI ISHLAB CHIQUISH. Академические исследования в современной науке 2 (4) 71-73.
5. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022) ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТХ ТАҲЛИЛИ IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24), 216-219.
6. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022) ПИЁДА ИШТИРОКИДА ЁНЛАНМА МАСОФА САҚЛАНМАСДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЙТХ ТАҲЛИЛИ IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24), 220-222.
7. Б Рахмат, Э Абдусаматов, Ш Шерматов (2022). ТОШКЕНТ ШАҲРИ КЎЧАЛАРИДА ТАРТИБГА СОЛИНМАГАН ПИЁДАЛАР ЎТИШ ЖОЙИДА ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24) 44-47.
8. S Shamshir, A Erkinjon, R Baxtiyor (2023). YO'L-TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNING O'RNI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2 (20) 87-91.
9. Э Абдусаматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88.
10. S Utkirov, E Abdusamatov, B Raxmanov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Евразийский журнал академических исследований 3 (2 Part 2) 57-65.



11. O' Isoxanov, E Abdusamatov, S Turdibekov (2022). ENGIL VA YUK AVTOMOBILLAR ISHTIROKIDAGI YTH TAHLILI. IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24), 216-219.

12. TNH Abdurazakova D.A, Abdusamatov E.X. (2023). REDUCING VEHICLE EXHAUST GASES BY COMPUTER SIMULATION OF THE ROAD INTERSECTION. European Chemical Bulletin 12 (4) 8615-8623. DOI:10.48047/ecb/2023.12.si4.769

13. SX Shermatov, UI Isoxanov, USS o'g'li (2023). METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR DETERMINING VEHICLE SPEED. European Chemical Bulluten 12 (4) 8624-8631. DOI:10.48047/ecb/2023.12.si4.770

14. SX Shermatov, SSO Utkirov, EXOGL Abdusamatov (2023). TRANSPOR SOHASIDA YUZAGA KELGAN MUAMOLARNING EKOLOGIYAGA TASIRI (avtomobil transporti). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3 (2) 702-709.